



TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA ILMIY-METODIK MARKAZI



YOSH OLIMLAR VA TADQIQOTCHILAR MAKTABI

MAVZU: Inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishda ixtisoslashtirilgan pedagogikaning o'рни va metodologik asoslari

MUALLIF: Qodirova Feruzaxon Usmanovna, p.f.d, professor

TOSHKENT – 2025




Ta'lim ko'pincha jamiyatdagi tenglik vositasi sifatida ko'riladi, ammo ko'p yillar davomida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar, turli etnik guruh vakillari va ijtimoiy jihatdan kam ta'minlangan shaxslar bundan chetda qolgan. Inklyuziv ta'lim ushbu muammoni hal qilish uchun ilgari surilgan bo'lib, har bir shaxsning o'ziga xosligi va huquqlarini tan olgan holda sifatli ta'lim olishiga qaratilgan



Inklyuziv ta'limda xalqaro hujjatlar

**1994-yilda UNESCO qoshidagi
Salamanca deklaratsiyasi**



**BM Tning 2006-yildagi
Nogironlar huquqlari
to'g'risidagi konvensiyasining
24-moddasi**

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni tashkil etishning nomativ-huquqiy asoslari

**O'zbekiston
Respublikasi
Konstitutsiyasi**



**Ta'lim to'g'risida
qonun**



**O'zbekiston
Respublikasi
Prezidentining 2020-yil
13-oktabrdagi PQ-4860-
son qarori**



**Vazirlar
Mahkamasining
2021-yil
12-oktabrdagi
638-son qarori**



**Vazirlar
Mahkamasining
2024-yil
25-yanvardagi
46-son qarori**





Inklyuziv sinflarda ta'limning mazmuni

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir.

Integratsiyalashgan ta'lim bu - diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan jarayonidir.

Integratsiyalashgan ta'limda bolaga muammo sifatida qaraladi.



Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni boshqa (sog'lom) o'quvchilar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Inklyuziv ta'lim olish jarayoni bir-biriga o'xshamaydigan, intellektual, jismoniy va aqliy xususiyatlarga ega bo'lgan bolalar sog'lom o'quvchilar bilan birgalikda zarur bilim va ko'nikmalarni oladigan tarzda tashkil etiladi. Inklyuziv ta'lim-alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan boshqa (sog'lom) o'quvchilar uchun teng ta'lim olish imkoniyatini yaratadi.

Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari:



Inklyuziv ta'limning maqsadi

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat.



Inklyuziv ta'limning vazifalari

Barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;

Ta'lim jarayonida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash.



Inklyuziv ta'lim sinfi

Maktabdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning boshqa (sog'lom) bolalar bilan teng huquqli va birgalikdagi ta'lim olishlari shaklida tashkil etilgan sinf.

Alohida ta'lim ehtiyojli bo'lgan bolalar soni 3 nafargacha.



Boshlang'ich tayanch korreksion sinfi

Maktabda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun alohida tashkil etiladigan boshlang'ich sinf.

Alohida ta'lim ehtiyojli bo'lgan bolalar soni 8-12 nafargacha.

Inklyuziv ta'limning maxsus ta'limdan farqi va afzalliklari



Inklyuziv ta'lim natijasida bolalar to'laqonli o'z oilalari bilan muntazam vaqt o'tkazishlari va emotsional to'yingan holda yashash imkoniyatiga ega bo'ladilar.



Inklyuziv ta'lim jarayoni natijasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'z tengdoshlari bilan o'zlarini teng his qila oladilar va ijtimoiylashuv jarayonida qiyinchiliklarga uchramaydilar.



Inklyuziv ta'lim sog'lom bolalarning yoshlikdanoq bolalarga ijobiy va adekvat munosabat shakllanishiga yordam beradi

Ixtisoslashtirilgan pedagogikaning mazmuni va vazifalari

Ixtisoslashtirilgan pedagogika – bu rivojlanishida turli cheklovlarga ega bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi fan sohasi. U quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:





Surdopedagogika – eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash;

Tiflopedagogika – ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish;

Oligofrenopedagogika – intellektual rivojlanishida cheklov bo'lgan bolalar bilan ishlash;


Logopediya – nutq buzilishlarini bartaraf etish;

Ushbu yo'nalishlar orqali har bir bola uchun individual yondashuv ishlab chiqiladi.

Inklyuziv ta'limda ixtisoslashtirilgan pedagogikaning o'rne

Ixtisoslashtirilgan pedagogikaning inklyuziv ta'limdagi asosiy vazifalari:


- a) Individual ehtiyojlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash;
- b) O'qituvchilar va mutaxassislar hamkorligi;
- d) Ta'lim muhitini moslashtirish





Amaliy misollar

Buyuk Britaniya: Hillingdon shahrida ta'lim psixologlari erta aralashuv orqali nogironligi bo'lgan o'quvchilarning ehtiyojlarini aniqlab, ularga moslashtirilgan ta'lim strategiyalarini ishlab chiqmoqda. Bu yondashuv o'quvchilarning sinfga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlaydi.



The Guardian Universal Design for Learning (UDL): UDL konsepsiyasi barcha o'quvchilar uchun ochiq va moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan. Bu yondashuv maxsus pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishda ixtisoslashtirilgan pedagogika quyidagi yo'llar orqali muhim rol o'ynaydi:

diagnostika: bolalarning rivojlanish darajasi, qobiliyatlari va ehtiyojlarini aniqlash;

individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish;

maxsus usluslar va metodikalarni qo'llash (masalan: vizual yordamlar, hissiy stimullar, taktil materiallar);

boshqa pedagoglarga ham metodik maslahatlar berish;

inklyuziv muhitni shakllantirishda ko'maklashish – bu jarayonda ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash, ota-onalar bilan ishlash va jamoaviy yondashuv ham muhim hisoblanadi.



Metodologik asoslar

Ixtisoslashtirilgan pedagogikada quyidagi metodologik yondashuvlar asos qilib olinadi:

shaxsga yo'naltirilgan yondashuv;
faollik va amaliyotga asoslangan;
ko'p sezgili (multisensor) yondashuv;
ijtimoiy integratsiya modeli;
hamkorlikda o'qitish.



Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilar:


ta'lim muassasalarining jismoniy va axborotga kirish imkoniyatini ta'minlash;

maxsus pedagogika va o'qituvchilarning malakasini oshirish;

differensial o'quv dasturlari va moslashtirilgan baholash tizimi;

jamiyatda ijobiy munosabatni shakllantirish va stigma (tahqirlash)ni kamaytirish;

siyosiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlash.



Inklyuziv ta'lim tizimining muvaffaqiyatli ishlashi:



ixtisoslashtirilgan pedagogika bo'yicha kadrlar tayyorlash va ularni doimiy malakasini oshirishga yuborish;

maxsus didaktik vositalar, moslashtirilgan o'quv dasturlarini (Individual ta'lim dasturlari) ishlab chiqish;

har bir bola uchun individual rivojlanish yo'lini aniq belgilash;

ota-onalar va jamoatchilikni jalb qilish;

inklyuziv madaniyatni rivojlantirishga bevosita bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni;**
- 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli qarori;**
- 3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qarori;**
- 4. S.Mo‘minov, Sh.Axmedova, G.Alimova “Inklyuziv sinfdagi maxsus o‘qituvchining alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash metodikasi” nomli metodik qo‘llanma 2022-yil;**
- 5. Maxsus pedagogika (Mutaxassislikka kirish), M.U.Xamidova, Toshkent – 2018-yil.**

Xulosa



Ixtisoslashtirilgan pedagogikani rivojlantirish – inklyuziv ta'limni sifatli amalga oshirishning asosi bo'lib xizmat qiladi